

**FARG'ONA IQTISODIY RAYONI KIMYO SANOATINING HUDUDIY
TARKIBI**

X.O.Abdinazarova - PhD, dotsent, QDPI

M.Karimova, U.Umarova talaba, QDPI

Annotatsiya. Maqolada Farg'ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoatining hududiy jihatlari o'rganilgan. Unda mazkur tarmoqning asosiy mahsulot ishlab chiqarish tarkibida hududlarning ulushi aniqlangan hamda xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: kimyo sanoati, tarmoq tarkibi, hududiy ulush, hududiy tarkib, kimyo sanoat korxonasi, tabiiy resurslar, mehnat resurslari.

**ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЙ СТРУКТУРА ХИМИЧЕСКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО
РАЙОНА**

X.O.Абдиназарова – PhD, доцент КГПИ

M.Каримова, У.Умарова – студентки КГПИ

Аннотация. В статье рассмотрены территориальные аспекты химической промышленности Ферганского экономического района. В ней определена доля регионов в структуре производства основной продукции данной отрасли и сделаны выводы.

Ключевые слова: химическая промышленность, сетевой состав, территориальная доля, территориальный состав, химическое промышленное предприятие, природные ресурсы, трудовые ресурсы.


**TERRITORIAL STRUCTURE OF THE CHEMICAL INDUSTRY OF THE
FERGANA ECONOMIC REGION**

Annotation. The article discusses the territorial aspects of the chemical industry of the Fergana economic region. It determines the share of regions in the structure of production of the main products of this industry and draws conclusions.

Key words: chemical industry, network composition, territorial share, territorial composition, chemical industrial enterprise, natural resources, labor resources.

Kirish. Ma'lumki, keyingi yillarda O'zbekistonda kimyo sanoatini, jumladan, mahalliy kimyo sanoatini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Bunda hududlarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kimyoviy korxonalarini joylashtirish va uning hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha bir qator islohotlar olib borilib sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022 yil 10 oktyabrdagi PQ-388-sonli Qarorida "Mahalliy mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash orqali yangi turdagi kimyo va gaz-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, sohaga mahalliy va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish maqsadi" [1] belgilab qo'yilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirishda, respublika va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga kimyo sanoatining ta'sirini aniqlash, uning tarmoq va hududiy tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Farg'ona iqtisodiy rayonida tashkil etilgan kimyo sanoat korxonalarining geografik xususiyatlarini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega. Kimyo sanoat korxonalarining geografik xususiyatlarini aniqlashda, uning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi, tarmoq va hududiy tarkibi, korxonalar soni va ishchi-xodimlar soni kabi iqtisodiy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi [2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9]. Kimyo sanoatning iqtisodiy ko'rsatkichlarini kuzatish va tahlil qilish orqali geografik jihatdan baholanadi. Negaki, korxonalarining bu ko'rsatkichlari ma'lum bir hududning rivojlanish holatini o'zida aks ettirib, muhim geografik xulosalar qilishga yordam beradi.



1-rasm. Farg’ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoati hududiy tarkibi (01.01.2021 y. holatiga, foizda)

O’rganishlar shuni ko’rsatmoqdaki, hozirda iqtisodiy rayonning respublika kimyo sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 13,6 foizga teng (1-rasmga qarang). Bu ulushning katta qismi hududiy tarkibda Farg’ona viloyatiga 10,1 foiz (bu borada viloyat respublika kimyo sanoat hududiy tarkibida 5-o’rinda turadi), Andijon viloyatiga 2,5 foiz va Namangan viloyatiga 1,0 foizdan to’g’ri keladi [2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9].

Agar kimyo sanoat ishlab chiqarishdagi ulushni iqtisodiy rayon ichki hududlari bo’yicha ko’rib chiqilsa, Farg’ona viloyati (72 foiz) yetakchilik qiladi. Qolgan qismi Andijon viloyatiga 20 foiz va Namangan viloyatiga esa 8 foiz ulush to’g’ri kelmoqda.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki, viloyatlar doirasida iqtisodiy rayon kimyo sanoati ishlab chiqarishida Farg’ona viloyati katta salohiyatga ega. Buning asosiy sababi bu yerda 2 ta mineral o’g’itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik kimyo sanoat korxonalaridan Farg’ona shahrida “Farg’onaazot” AJ, Qo’qon shahrida “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJ (sobiq “Qo’qon superfosfat zavodi” AJ) va paxta sellyulozasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Farg’ona kimyo zavodi” MCHJ kabi yirik korxonalarining joylashganligidir. Natijada nafaqat viloyatda yoki iqtisodiy rayonda balki respublikada kimyo sanoat ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 2 ta yirik kimyo sanoat markazlari Farg’ona va Qo’qon shaharlarida hosil bo’lgan. Bizningcha, keyingi yillarda kimyo sanoati taraqqiy etmagan hududlarga ayniqsa, Namangan viloyati sanoatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022 yil 10 oktyabrdagi PQ-388-sonli Qarori.
2. Abdinazarova X.O. Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan. <http://www.iupr.ru> Экономика и социум. Электронное периодическое издание Россия, г. Саратов 2020. №9(76). 3-7-b.
3. Abdinazarova X.O. Farg'ona iqtisodiy rayonida tashkil etilgan kimyo sanoat korxonalar faoliyatining geografik tavsifi. <http://www.iupr.ru> Экономика i sotsium. Elektronnoe periodicheskoe izdanie Rossiya, g. Saratov 2022. №3(94). 351-355.
4. Abdinazarova X.O. The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District. <http://openaccessjournals.eu/index>. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 2 Issue: 6, 2022. 135-140.
5. Abdinazarova X.O. The Uzbekistan chemical industry's regional composition and primary movements. Spanish Journal of Innovation and Integrity ISSN 2792-8268 Volume-12 | November -2022. 249-255-b.
6. O.Kozibayeva, D.Mominov, X.Abdinazarova, D.Yuldasheva Geocological basis of south Fergana nature protection and rational use of natural resources. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.
7. Абдиназарова Х.О. Фарғона иқтисодий райони кимё саноати ҳудудий таркибини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари. География: табиат ва жамият. Электрон журнал. №1. Тошкент-2021 doi <http://dx/doi/org/10/26739/2181-0834-2021-1-9>.
8. Abdinazarova X.O. Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan. Экономика и социум. Электронное периодическое издание Россия, г. Саратов 2020. №9(76). <http://www.iupr.ru>

9. Komilova N., Abdinazarova X.O. The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan. Экономика и социум. Электронное периодическое издание Россия, г. Саратов 2020. №9(76). <http://www.iupr.ru>
10. O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. 2021 yil.